IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 02 IYUL 2026

O’ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZOLIGI:OQIBATLARI VA FOYDALARI

Jumayeva Sora Eshbo’ri qizi

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti talabasi

“To’liq erkin savdo tizimida har bir mamlakat o’z kapitali va mehnatini eng foydali ishga sarflaydi.Shaxsiy manfaat izlanishi butun olamning umumiy manfaati bilan ajoyib tarzda bog’lanadi.”

David Ricargo

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ga a'zoligi jarayonini va uning iqtisodiy oqibatlarini chuqur tahlil qiladi. JSTga kirishning YaIM o'sishi, savdo hajmi, xorijiy investitsiyalar, sektorlar o'rtasidagi o'zgarishlar va ishsizlik darajasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholaydi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida JSTga qo'shilishdan kutilayotgan foydalar va uning oqibatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: JSTga a'zolik, savdo liberallashuvi, CGE modellashtirish, O'zbekiston iqtisodiyoti, eksport va import, Markaziy Osiyo o'tish jarayoni, XTII oqimi, sektoriy o'zgarishlar, institutsional islohotlar, mintaqaviy integratsiya.

Hozirgi zamonaviy globallashuvning jarayonlari tez va jadal hukmronlik qilayotgan zamonaviy sharoitda davlatlarning jahon iqtisodiy tizmiga chuqur va barqaror integratsiyalashuvi nafaqat strategik, balki muhim ahamiyatga ega bo’lib qolmoqda.Jahon Savdo Tashkiloti (JST) xalqaro savdo munosatlarini ko’p tomonlama tartibga solishning yetakchi institsional tizimi sifatida erkin savdo rejimlarini va bojxona shu bilan birga nodavlat ta’rif to’siqlarini sistemali ravishda qisqartirish, shuningdek global iqtisodiy makonning bir butunlik sifatida mustahkamlanishuviga xizmat qiluvchi mexanizm vazifasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi uchun JSTga to‘laqonli a’zolik masalasi bugungi iqtisodiy faoliyatdagi eng muhim va ustuvor jihatlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayon mamlakatning tashqi savdo rejimini liberallashtirish, xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimini faollashtirish, ishlab chiqarish va xizmatlar sektorlarining global qiymat zanjirlariga qo‘shilishi, shuningdek, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sish modelini shakllantirish strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi[1].

Jahon Savdo Tashkiloti (JST / WTO) — mamlakatlararo savdo qoidalari bo'yicha yagona xalqaro institut sanaladi, chunki u xalqaro savdoni tartibga soluvchi yagona ko'p tomonlama tashkilotdir. U o’z faoliyatini 1995-yil 1-yanvardan boshlagan[2]. GATT (General Agreement on Tariffs and Trade — Tariflar va savdo bo'yicha umumiy kelishuv) 1947-yilda imzolangan va JST uning mantiqiy vorisi sifatida tashkil etilgan. Uruguay raundi natijasida Marrakesh kelishuvi (1994-yil 15-aprel) bilan JST yaratilgan[3].

O'zbekiston 1994-yilda JSTga a'zo bo'lish uchun ariza bergan bo'lsa-da, ichki yo'naltirilgan siyosat tufayli jarayon uzoq vaqt to'xtab qolgan. 2016-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qayta faollashdi: valyuta liberallashuvi , muzokaralarni tiklash kabi faoliyatlarni

[1] https://uz.wikipedia.org
[2] uz.wikipedia.org/wiki/Jahon_savdo_tashkiloti, uzbwto.uz
[3] https://uz.wikipedia.org/wiki/Jahon_savdo_tashkiloti

tiklash va muzokaralar olib borish muhim qadamlar bo'ldi. 2026-yil fevral holatiga ko'ra, 34 ta a'zo davlatdan 33 tasi bilan ikki tomonlama muzokaralar yakunlangan (faqat Tayvan qolgan), ko'p tomonlama bosqichda qonunchilikni JST standartlariga moslashtirish ishlari davom etmoqda[4].Prezident farmoniga ko'ra, a'zolik 2026-yil mart oyida Kamerundagi 14- vazirlar konferensiyasida yoki dekabr oyida rasmiylashtirilishi kuzatilmoqda, bu esa O'zbekistonni jahon savdosining 97% ni qamrab oluvchi tizimning a'zosiga aylanishga yordam beradi[5].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning nazorati ostida bu yo'nalish "Yangi O'zbekiston" strategiyasi va "O'zbekiston-2030" dasturining muhim qismi sifatida belgilangan. 2023–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi Jahon savdo tashkilotiga (JST) qo'shilish jarayonini jadallashtirish maqsadida savdo-sotiq, bojxona tartib-qoidalari, subsidiyalar, intellektual mulk huquqlari, texnik reglamentlar, sanitariya va fitosanitariya choralari kabi sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu davr mobaynida 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, bu mamlakat qonunchiligini JST talablariga muvofiqlashtirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi[6]. 2023–2025 yillarda savdo va iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi 9 dan 13 tagacha yangi qonun qabul qilingan. Bu qonunlar asosan JSTga qo'shilish jarayonida talab etiladigan majburiyatlarni bajarishga qaratilgan bo'lib, quyidagi sohalarni qamrab olgan.

1.Savdo va bojxona tartib-qoidalari[7].

2. Intellektual mulk huquqlari[8].

3. Texnik reglamentlar, sanitariya va fitosanitariya choralari (SFS)[9].

Prezident tomonidan 6 dan 10 tagacha farmon va qarorlar qabul qilindi, ular bozor islohotlarini jadallashtirish va JSTga qo'shilish jarayonini tezlashtirishga qaratilgan. Masalan:

O'z.Res. Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-85-son Farmoni qabul qilingan va ushbu Farmonda bozor islohotlarini jadallashtirish haqida bo'lib, u savdo va investitsiyalar sohasidagi to'siqlarni bartaraf etishni nazarda tutilgan.

O'z Res Prezidentining 2024-yil 27-fevraldagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-41-son Farmoni qabul qilingan, u Texnik reglamentlash agentligini Vazirlar Mahkamasiga bo'ysundirgan va texnik reglamentlar sohasidagi faoliyatni belgilagan.

O'z Res Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-57-sonli Farmoni orqali intellektual mulk, bojxona baholash va savdo xizmatlari sohasidagi islohotlar tasdiqlandi[10].

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12 ta qaror qabul qilindi, shuningdek, idoraviy hujjatlar (jumladan, 10 ta idoralararo va 6 ta idoraviy) ishlab chiqildi. Bu hujjatlar quyidagi yo'nalishlarni qamrab oldi:

[4] https://data.consilium.europa.eu/doc/document/ST-6606-2026-INIT/en/pdf
[5] https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/a1_ouzbekistan_e.htm#menu
www.wto.org

[6] President.uz
[7] https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-standards-trade
[8] https://cwbip.com/insights/news/2025/uzbekistan-adopts-new-ip-law-amending-certain-legislative-acts
[9] https://uzbwto.uz/en/news/ozbekiston-jstga-azo-bo
[10] https://president.uz/en/lists/view/8125

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi 2025 yil 27 fevraldagi qaror.

Savdo himoyasi, eksport bojlarini tartibga solish va tranzit erkinligi bo‘yicha qarorlar.

SFS va texnik to‘siqlar (TBT) sohasidagi idoraviy hujjatlar, masalan, oziq-ovqat mahsulotlaridagi pestitsidlar va veterinariya dori-darmonlari qoldiqlari bo‘yicha normalar[11].

JSTga a'zolik O'zbekiston iqtisodiyotini global tizimga chuqurroq integratsiya qiladi, bu esa savdo o'sishi, investitsiyalar va institutsional islohotlar orqali uzoq muddatli foydalarni ta'minlaydi.

Savdo Hajmi va Eksport O'sishi bo’yicha quyidagilar: JST a'zoligi "Eng qulay millat" usulini qo'llaydi, bu esa tariflar va to'siqlarni kamaytirib, xorijiy bozorlarga barqaror kirishni ta'minlaydi. O'zbekiston eksportchilari uchun bu noaniqlikni kamaytiradi va savdo hajmini oshiradi. Masalan, JST iqtisodchilarining tahliliga ko'ra, a'zolikdan keyin iqtisodiyotlar o'rtacha 1,5% tezroq o'sadi, investitsiyalar ko'payadi va savdo oqimi yaxshilanadi. Qozog'iston tajribasiga ko’ra, a'zolikdan keyin mamlakat miqyosida savdo hajmi oshgan, ammo qisqa muddatda ishsizlik ko'paygan[12]. O'zbekiston uchun CGE[13] (Government Gross Expenditure) modellari shuni bashorat qiladiki, tariflarni 80% ga pasaytirish yillik YaIM o'sishini 0,4% ga, xonadon farovonligini 0,9% ga oshiradi, eksportni +2,1–2,8% ga, importni +1,7–2,9% ga ko'taradi. 2025-yilda O'zbekistonning raqamli xizmatlar eksporti 1,66 mlrd dollarga yetgan, ammo 2023-yilda 903 mln dollarga tushgan; JST a'zoligi bu sektorning o'sishini tiklaydi. Ekspertlarning fikricha, bu O'zbekistonni O'rta koridor (Middle Corridor) orqali global ta'minot zanjirlariga qo'shadi, savdo hajmini 3 baravar oshirishi mumkin[14].

Xorijiy Investitsiyalar bo’yicha: A'zolik investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi, chunki bu orqali shaffof qoidalar va huquqiy himoya kuchayadi. 2024-yilda O'zbekistonning Xorijiy investitsiyalardan keladigan mablag’ 12 mlrd dollarga yetgan va a'zolikdan keyin ikki baravar o'sishi kutilmoqda. JST talablari bo'yicha intellektual mulk huquqi, texnik to'siqlar va sanitariya me'yorlari yaxshilanadi, bu esa texnologiyalar transferini va mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi[15]. Qirg'iziston tajribasiga ko'ra, a'zolik savdo hajmini 10 baravar oshirgan (1998–2018 yillarda 6242 mln dollarga yetgan), eksport ulushi 50,5% dan 89,2% ga oshgan[16].

Institutsional va Ijtimoiy foydalar quyidagilar: JSTga a'zolik qonunchilikni modernizatsiya qiladi, shaffoflikni oshiradi va korrupsiyani kamaytiradi. Bu orqali iste'molchilar uchun import tovarlari arzonlashadi, tanlov ko'payadi va inflyatsiya sekinlashadi. JST bosh direktori Ngozi Okonjo-Iweala ta'kidlaganidek, a'zolik "ochik va adolatli" savdo qoidalarini ta'minlaydi, iqtisodiy o'sishni 1,5% tezlashtiradi va inqirozlarda yordam beradi. Umuman olganda, JST a'zoligi O'zbekistonni global savdoning 98% qismini qamrab oluvchi tizimning to'la huquqli ishtirokchisiga aylantiradi[17].

[11] https://www.gazeta.uz/en/2026/01/08/wto/
[12] https://europeanscience.org/index.php/2/article/download/834/803/1623
[13] (Government Gross Expenditure – Hukumatning yalpi xarajatlari) iqtisodiy va statistik tahlillarda, shuningdek, davlat boshqaruvi hujjatlarida ishlatiladi.
[14] https://www.wto.org/english/news_e/spno_e/spno49_e.htm
[15] https://hagueresearch.org/how-can-uzbekistan-integrate-into-the-global-economy/
[16] https://europeanscience.org/index.php/2/article/download/834/803/1623
[17] https://www.wto.org/english/news_e/spno_e/spno49_e.htm

O’zbekistonning JSTga a’zo bo’lishidagi foydalari bilan birga qisqa muddatli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu asosan raqobat bosimi va moslashish xarajatlari orqali yuzaga keladi.

Raqobat Bosimi va Ishsizlik O'sishi bo’yicha quyidagilar: Tariflarni kamaytirish import oqimini oshiradi, bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarga noqulayliklar olib keladi. Masalan, tariflarni 1% ga pasaytirish importni 2,7% ga oshirishi va byudjet daromadini 1,4% ga kamaytirishi mumkin. Qozog'iston va Qirg'iziston tajribasi asosida shuni ko'rishimiz mumkinki, a'zolikdan keyin ishsizlik oshgan, chunki zaif sektorlar import raqobatiga duch kelgan. O'zbekiston uchun energiya, metallar va qishloq xo'jaligi sektorlari xavf ostida qoladi, masalan, Lukoil va Uzbekneftegaz kabi kompaniyalar uchun eksport huquqlarini bekor qilish narx bosimini keltirib chiqarishi mumkin.Bu esa qishloq xo'jaligi kichik fermerlar uchun raqobatni kuchaytiradi, subsidiyalar cheklovi esa foyda darajasini pasaytiradi[18].

Subsidiyalar va Byudjet yo'qotishlari bo’yicha: JST qoidalari subsidiyalarni cheklaydi, bu esa qishloq xo'jaligi va sanoatga ta'sir qiladi. O'zbekistonda subsidiyalarni bekor qilish byudjet defitsitini 46–100 mln dollarga yetkazishi va valyuta devalvatsiyasini 10–17% ga olib kelishi mumkin. Notarif to'siqlar savdoni 50% dan ortiq cheklashi mumkin, ammo moslashish xarajatlari yuqori: qonunchilik o'zgartirish, mutaxassislar tayyorlash va institutlarni mustahkamlash resurs talab etadi[19].

Sektoriy va Ijtimoiy qiyinchiliklar bo’yicha: Sektoriy o'zgarishlar qishloq xo'jaligidan sanoatga o'tishni talab qiladi. Qirg'iziston tajribasi shuni ko'rsatadiki, a'zolikdan keyin iqtisodiy pasayish va byudjet muammolari yuzaga kelgan. O'zbekiston uchun telekommunikatsiya va jamoat xaridlari sektorlarida mahalliy imtiyozlarni bekor qilish raqobatni kuchaytiradi. Ekspertlar ta'kidlashicha, agarda sug'urta choralari ko'rilmasa, liberallashuvni tez sur'atlarda amalga oshirish iqtisodiy inqirozlarga olib kelishi mumkin. Umuman olganda ushbu jarayon resurs talab etadi va siyosiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi[20].

Xulosa qilib aytganda, JSTga a'zolik O'zbekiston uchun strategik va uzoq muddatli foydali qaror hisoblanadi, chunki u global iqtisodiyotga chuqurroq kirish, diversifikatsiya[21] va institutsional modernizatsiyani ta'minlaydi. Salbiy oqibatlar esa asosan qisqa muddatli va to'g'ri boshqarilganda yumshatilishi mumkin bo’ladi. Agar yuqorida keltirilgan xatarlar to'g'ri boshqarilsa, JSTga a'zolik "Yangi O'zbekiston" strategiyasining muhim qismi bo'lib, mamlakatni barqaror iqtisodiy o'sish, global raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishga olib chiqadigan muhim bosqich bo'ladi. Jarayonning yakuniy muvaffaqiyati islohotlarning chuqurligi, siyosiy irodasi va xatarlarni yumshatish choralariga bog'liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Toshpulatova, M. (2025). Uzbekistan's Foreign Trade Strategy: Economic Analysis of WTO and EAEU Directions.
2. Choriev, A. (2024). The Role of WTO in Economic Development of Uzbekistan.
3. Aliyeva, B. (2025). Uzbekistan's Accession to the WTO: Challenges and Solutions.

[18] https://kun.uz/en/news/2024/12/26/what-joining-the-wto-means-for-uzbekistans-future
[19] https://www.german-economic-team.com/en/newsletter/uzbekistans-wto-accession-the-impact-of-tariff-liberalisation/
https://kun.uz/en/news/2024/12/26/what-joining-the-wto-means-for-uzbekistans-future
[20] https://bisi.org.uk/reports/uzbekistan-pushes-for-economic-reforms-in-a-bid-to-join-wto
https://www.german-economic-team.com/en/newsletter/uzbekistans-wto-accession-the-impact-of-tariff-liberalisation/
[21]

4. Zaynabidinov, K. (2026). Uzbekistan's Accession to the WTO and Its Impact on the Tax System
5. https://data.consilium.europa.eu/doc/document/ST-6606-2026-INIT/en/pdf
6. https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/a1_ouzbekistan_e.htm#menu
7. https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-standards-trade
8. President.uz, Lex.uz
9. https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-advances-legislative-reforms-on-path-to-wto-accession/
10. https://cwbip.com/insights/news/2025/uzbekistan-adopts-new-ip-law-amending-certain-legislative-acts
11. https://uzbwto.uz/en/news/ozbekiston-jstga-azo-bo
12. https://president.uz/en/lists/view/8125
13. https://www.gazeta.uz/en/2026/01/08/wto/
14. https://www.wto.org/english/news_e/spno_e/spno49_e.htm
15. https://www.cipe.org/resources/uzbekistans-accession-to-the-eurasian-economic-union-advantages-and-risks/
16. https://hagueresearch.org/how-can-uzbekistan-integrate-into-the-global-economy/
17. https://kun.uz/en/news/2024/12/26/what-joining-the-wto-means-for-uzbekistans-future
18. https://www.german-economic-team.com/en/newsletter/uzbekistans-wto-accession-the-impact-of-tariff-liberalisation/
19. https://bisi.org.uk/reports/uzbekistan-pushes-for-economic-reforms-in-a-bid-to-join-wto